Yagona Vatan, yagona xalq bo‘lib, yangi hayot va kelajak yaratamiz!

YANGI FARG‘ONA

Gazeta 2022-yil 4-oktyabrdan chiqa boshlagan

№ 90 (416)

2026-yil 11-noyabr CHORSHANBA

DANG‘ARANING CHEKKA MAHALLASIDA – ZAMONAVIY FUTBOL STADIONI

Dang‘ara tumanidagi “Aravon” mahallasida zamonaviy futbol stadionining tantanali ochilish marosimi bo‘lib o‘tdi. Unda viloyat hokimi Xayrullo Bozorov, mahalla faollari, yoshlar, sport jamoatchiligi va minglab futbol muxlislari ishtirok etdi.



Viloyat hokimi tadbir ishtirokchilarini yangi stadionning foydalanishga topshirilishi bilan samimiy tabrikladi.

– Bugun mamlakatimizda futbolni rivojlantirish uchun Prezidentimiz tomonidan juda katta imkoniyatlar yaratilmoqda. Quvonarlisi, bu ezgu ishlarga farg‘onalik futbolsevar tadbirkorlarimiz ham o‘z hissasini qo‘shmoqda. Ulug‘bek Yodgorovning tashabbusini alohida faxr bilan tilga olsak, arziydi. Dang‘aradan boshlangan “Havaskorlar ligasi” bugun butun viloyatimiz bo‘ylab ommalashdi. Mana, tadbirkorimiz tomonidan chekka “Aravon” mahallasida ham havas qilsa arziydigan, barcha sharoitlarga ega zamonaviy stadion bunyod etildi. Buning ortida futbolga bo‘lgan mehr, yoshlar kelajagiga e'tibor, eng muhimi, el-yurtga naf keltirishdek ezgu niyat mujassam. Bunday tashabbuslardan xalqimiz yutadi, mahallalarimiz obod bo‘ladi, yoshlarimiz sportga oshno bo‘ladi. Ishonamanki, ertaga aynan mana shunday mahalla maydonlaridan katta futbolga kirib keladigan, Farg‘ona va O‘zbekiston sharafini xalqaro maydonlarda munosib himoya qiladigan iste'dodli futbolchilar yetishib chiqadi, – dedi viloyat hokimi.

Viloyat rahbari futbol rivojiga munosib hissa qo‘shayotgani, yoshlar uchun zamonaviy sport infratuzilmasini yaratishdagi tashabbuskorligi uchun tadbirkor Ulug‘bek Yodgorov va uning safdoshlariga samimiy minnatdorlik bildirdi. Bunday xayrli tashabbuslarni boshqa hududlarda ham keng qo‘llab-quvvatlash muhimligini ta'kidladi.

Yangi stadion 2500 nafar tomoshabinga mo‘ljallangan bo‘lib, unda futbol uchrashuvlarini o‘tkazish, sportchilar va muxlislar uchun barcha zarur sharoitlar yaratilgan. Tadbirkor tomonidan mazkur yo‘nalishdagi ishlar izchil davom ettirilib, kelgusida hududda zamonaviy sport majmuasini barpo etish ham rejalashtirilmoqda.

Tantanali tadbir davomida respublika va xalqaro musobaqalarda yuqori natijalarga erishgan dang‘aralik sportchilar munosib taqdirlanib, ularga esdalik sovg‘alari topshirildi.

Ma'lumotlarga ko‘ra, “Havaskorlar ligasi” chempionatining saralash bosqichida viloyatning turli hududlaridan 95 ta jamoa ishtirok etib, o‘zaro kuch sinashdi. Final bahslarida yuqori natijalarga erishgan 25 ta jamoa chempionlik uchun kurashni davom ettiradi.

Tantanali marosimda “Aravon” stadioni rasman foydalanishga topshirilib, “Havaskorlar ligasi” chempionatining navbatdagi uchrashuvlariga start berildi.

Yangi stadiondagi ilk futbol uchrashuvida Dang‘ara tumanining “Soyshildir” hamda Qo‘qon shahrining “Afg‘onbog‘” mahallalari jamoalari o‘zaro kuch sinashdi. Uchrashuvni taniqli futbol sharhlovchisi Mirzakarim To‘xtamirzayev sharhlab bordi. Qizg‘in va do‘stona ruhda kechgan bahs 1:1 hisobida yakunlandi.

Muslimbek TO‘LANOV olgan suratlar.



«Prezident Olimpiadasi»:

FARG‘ONALIK SPORTCHILARDA – 54 TA MEDAL

Mamlakatimizda yoshlar sportini rivojlantirish, iqtidorli sportchilarni kashf etish, ularning mahoratini yuksaltirish hamda xalqaro musobaqalar uchun munosib zaxirani shakllantirish maqsadida tashkil etilgan II «Prezident Olimpiadasi» musobaqalari o‘z yakuniga yetdi.



27-oktyabrdan 7-noyabrga qadar davom etgan mazkur nufuzli sport tadbirida respublikamizning barcha hududlaridan 3 657 nafar yosh sportchi olimpiya va paralimpiya yo‘nalishidagi 26 ta sport turi bo‘yicha g‘oliblik uchun bahs olib bordi.

Ushbu musobaqada Farg‘ona viloyati terma jamoasi ham faol ishtirok etib, bir qator sport turlarida yuqori natijalarni qayd etdi. Farg‘onalik yigit-qizlar o‘zlarining mahorat, matonat va g‘alabaga bo‘lgan qat'iyatini namoyon etib, jami 54 ta medalni qo‘lga kiritishdi. Ularning 10 tasi oltin, 14 tasi kumush va 30 tasi bronza medallaridir.

Musobaqalar davomida Farg‘ona viloyatining basketbol bo‘yicha 3x3 jamoalari alohida natijaga erishdi. O‘g‘il bolalar jamoasi final bahsida Toshkent shahri vakillarini mag‘lub etib, oltin medalni qo‘lga kiritgan bo‘lsa, qizlar jamoasi hal qiluvchi uchrashuvda Qoraqalpog‘iston Respublikasi vakillaridan ustun keldi. Shu tariqa, har ikki jamoa ham musobaqa chempioniga aylanib, Farg‘ona viloyatiga ikki karra g‘alaba tuhfa etdi.

Taekvondo WT yo‘nalishida ham viloyatimiz yoshlari o‘z mahoratlarini namoyon etishdi. Xususan, 45 kilogramm vazn toifasida Avazbek Murodov barcha raqiblarini ortda qoldirib, oltin medalga sazovor bo‘ldi. 59 kilogramm vazn toifasida Shahlo Adhamova kumush medalni qo‘lga kiritdi. Shuningdek, Asadullo Yoqubjonov va Mohizoda Ergashaliyeva musobaqani bronza medallari bilan yakunladi.

Erkin kurash bahslarida ham vakillarimiz muvaffaqiyatli ishtirok etishdi. Habib Abdurahmonov va Abdulaziz Ahmadjonov o‘z vazn toifalarida oltin medallar, Abdulla Ne'matjonov esa kumush medal sohibi bo‘lishdi.

O‘zbekiston Milliy olimpiya qo‘mitasi ma'lumotlariga ko‘ra, musobaqada Farg‘ona viloyati basketbolning 3x3 yo‘nalishida «Eng yaxshi jamoa» nominatsiyasiga ham sazovor bo‘ldi. Bu esa viloyat sportchilarining nafaqat shaxsiy, balki jamoaviy natijalarda ham yuqori salohiyatga ega ekanini tasdiqlaydi.

Erishilgan natijalar bilan barcha sportchilarimizni, ularning murabbiylari, ota-onalari hamda sport jamoatchiligini samimiy tabriklaymiz!

Kelgusida ham Farg‘ona viloyati yosh sportchilari xalqaro maydonlarda yurtimiz bayrog‘ini baland ko‘tarib, yangi zafarlar va yuksak marralarni zabt etishiga ishonamiz.

Hayotjon ABDULLAYEV, “Yangi Farg‘ona” muxbiri

Viloyat hokimligida



QURILISH SANOATIDAGI ISTIQBOLLI LOYIHALAR MUHOKAMASI

Viloyat hokimi Xayrullo Bozorov Xitoyning “Yude Intelligent Building Materials” kompaniyasi bosh direktori o‘rinbosari Tsuy Tszyuntsyan hamda uning qirg‘izistonlik hamkorlarini qabul qildi.

Uchrashuvda qurilish materiallari sanoatida zamonaviy ishlab chiqarish quvvatlarini yaratish, xususan, energiya tejamkor va ekologik toza texnologiyalar asosida qurilish mahsulotlari loyihasini amalga oshirish masalalari haqida so‘z bordi.

Mehmonlar kompaniyaning xalqaro tajribasi va turli davlatlardagi faoliyati haqida ma'lumot berib, viloyatdagi qulay investitsiyaviy muhitni yuqori baholadilar.

Viloyat hokimi sanoatni rivojlantirish va xorijiy investitsiyalarni jalb etishda ilg‘or texnologiyalarga asoslangan loyihalar muhim ahamiyat kasb etishini ta'kidlab, xitoylik investorlar bilan hamkorlikni kengaytirishga tayyorligini bildirdi.

Muloqot davomida o‘zaro manfaatli loyihani amalga oshirish uchun aniq chora-tadbirlar ishlab chiqishga kelishib olindi.

Ko‘rgazma

Marg‘ilon hunarmandchilikni rivojlantirish markazida milliy hunarmandchilik an'analarini asrab-avaylash, rivojlantirish va keng targ‘ib etish maqsadida “Qo‘qon pichoqlari” ko‘rgazmasi tashkil etildi.



QO‘QON PICHOQSOZLIK MAKTABI AN'ANALARI – MARG‘ILONDA

Mazkur tadbir O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2026-yil 9-avgustda qabul qilingan “Geografik ko‘rsatkichlarni rivojlantirish va qo‘llab-quvvatlash bo‘yicha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi 375-son qarori bilan tasdiqlangan geografik ko‘rsatkichlar festivallarini o‘tkazish reja-jadvali ijrosi doirasida o‘tkazildi.

Respublika “Hunarmand” uyushmasi, Farg‘ona viloyati va Marg‘ilon shahar hokimliklari tashabbusi bilan tashkil etilgan ko‘rgazmada vodiy viloyatlarida faoliyat yuritayotgan pichoqsoz ustalar ishtirok etib, o‘zlari yaratgan nodir hunarmandchilik namunalarini namoyish etdilar.

Tadbirning ochilish marosimida respublika “Hunarmand” uyushmasi raisi Rasuljon Mirzaahmedov va viloyat hokimi o‘rinbosari Xurshidjon Ahmedovlar so‘zga chiqib, pichoqsozlik san'atini yanada rivojlantirish, ustoz-shogird an'analarini davom ettirish, mohir ustalar tajribasini ommalashtirish hamda hunarmandlar o‘rtasida o‘zaro tajriba almashishni rag‘batlantirish muhimligini ta'kidlashdi.

Ko‘rgazmada turli shakl, bezak va ishlanish uslublariga ega pichoqlar namoyish etildi. Har bir mahsulotda ustalarning yuksak mahorati, nozik didi va o‘ziga xos ijodiy yondashuvi mujassam. Bu esa Qo‘qon pichoqsozlik maktabining boy an'analari va milliy hunarmandchiligimizning betakror qirralarini yana bir bor namoyon etdi.

Shuningdek, ko‘rgazma doirasida adras to‘qish, gilamdo‘zlik, do‘ppido‘zlik va kulolchilik kabi milliy hunarmandchilik yo‘nalishlarida faoliyat yuritayotgan ustalar ham o‘z mahsulotlarini namoyish etdilar. Bu esa tadbirning mazmun-mohiyatini yanada boyitib, milliy amaliy san'atimizning rang-barangligini keng targ‘ib etishga xizmat qildi.

Tadbir yakunida ko‘rgazmada faol ishtirok etgan mahoratli hunarmandlar tashakkurnomalar hamda esdalik sovg‘alari bilan taqdirlandilar.

Matn va surat muallifi Muqimjon QODIROV.

Bugun – O‘zbekiston kasaba uyushmalari kuni

XODIMLAR HUQUQI VA MANFAATLARI – USTUVOR



Erkinjon NURALIYEV,
O‘zbekiston kasaba uyushmalari Federatsiyasi Farg‘ona viloyat Kengashi raisi

O‘zbekiston kasaba uyushmalari Federatsiyasining Farg‘ona viloyat Kengashi korxona va muassasalarda mehnat qilayotgan ishchi-xodimlarning ijtimoiy-iqtisodiy hamda huquqiy manfaatlarini himoya qilish, ularning mehnatlarini muhofazalash masalasini ustuvor vazifalar sirasiga kiritib, ish olib bormoqda.

Joriy yilning to‘qqiz oyi mobaynida 13 509 ta korxona, tashkilot va muassasalarda jamoa shartnomalari qabul qilindi, shuningdek, amaldagi jamoa shartnomalariga qo‘shimcha va o‘zgartirishlar kiritildi. Bu jamoa shartnomalari orqali 589 766 nafardan ziyod ishchi-xodimlarning ijtimoiy-iqtisodiy va huquqiy manfaatlarini himoya qilish ko‘zda tutilgan. Ularning bajarilishi hisobiga har bir kasaba uyushma a'zosining manfaatdorlik darajasi 2025-yil yakuniga ko‘ra 6114,5 ming so‘mni tashkil etdi. Bu ko‘rsatkich 2023-yilga nisbatan 1063 ming so‘mga ko‘paydi.

Yil boshida viloyat hokimligi, O‘zbekiston kasaba uyushmalari Federatsiyasining Farg‘ona viloyat Kengashi va Savdo-sanoat palatasi o‘rtasida ijtimoiy-iqtisodiy masalalar bo‘yicha 2026-2028-yillar uchun hududiy jamoa kelishuvi tuzildi. Uning joylarda bajarilishi yuzasidan yilning o‘tgan oylari mobaynida Ijtimoiy mehnat masalalari bo‘yicha viloyat uch tomonlama komissiyasi tomonidan ikki marotaba yig‘ilish o‘tkazildi.

Viloyatimiz bo‘yicha yilning o‘tgan davri mobaynida 8094 ta ish o‘rinlari ijtimoiy muhofazaga muhtoj va mehnat bozorida teng sharoitlarda raqobatlasha olmaydigan shaxslarni ishga joylashtirish uchun belgilangan (kvotalangan) bo‘lib, shundan nogironligi bo‘lganlar uchun 2742 tani tashkil etdi. Shuningdek, 4147 nafar fuqaro korxona, tashkilot va muassasalarda band qilib qo‘yilgan ish o‘rinlariga ishga joylashtirildi.

Nogironligi bo‘lganlarning 603 nafari, oilaviy (maishiy) zo‘ravonlikdan jabrlangan shaxslarning 9 nafari, reyestrda turgan kambag‘al oilalarning 3432 nafar a'zosi, muqobil joylashtirish shakllarida tarbiyalangan etim, ota-ona qaramog‘idan mahrum bo‘lgan shaxslarning 7 nafari, jazoni o‘tash muassasalaridan bo‘shatilganlarning 100 nafari hamda odam savdosidan jabrlangan shaxslarning 2 nafari ishga joylashtirildi.

Oltiariq tumanida joylashgan, 110 nafar bolani qamrab olgan “Oltiariq”, Quvasoy shahriga qarashli, 230 nafar o‘g‘il-qizni o‘z bag‘riga olgan Qo‘chqorchi qishlog‘idagi “Vodiy gavhari” bolalar sog‘lomlashtirish oromgohlarida “Butunjahon bolalar mehnatiga qarshi kurash kuni”ga bag‘ishlangan “Bolalar mehnatiga qizil kartochka: bolalar uchun adolatli o‘yin, kattalar uchun munosib mehnat” shiori ostida hamkor tashkilotlar bilan birgalikda tadbir o‘tkazildi. Bunday tadbirlar viloyatda faoliyat yuritayotgan barcha statsionar bolalar sog‘lomlashtirish oromgohlarida ham o‘tkazildi.

Viloyatda yilning o‘tgan davrida davlat dasturi tadbirlarini bajarish orqali 6 506 ta korxona va tashkilotda 63 510 nafar fuqaroga jami 10 milliard 667 million 889 ming so‘m miqdorida ijtimoiy ko‘mak berildi.

2026-yilgi paxta yig‘im-terimi mavsumida terimchilar bilan mehnat munosabatlarining yo‘lga qo‘yilishi, ular uchun munosib yashash va mehnat sharoitlari yaratib berilishi hamda ish haqlarining o‘z vaqtida, to‘liq to‘lanishi yuzasidan tegishli chora-tadbirlar tasdiqlanib, 25-sentyabrdan 31-oktyabrga qadar joylarda Milliy monitoring joriy etilgani yaxshi samara berdi.

Joriy yilning 9 oyi davomida O‘zbekiston kasaba uyushmalari Federatsiyasining Farg‘ona viloyat Kengashiga O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Xalq qabulxonasi, virtual qabulxona, rasmiy elektron pochta manzillari orqali korxona, tashkilot va muassasalarda ishlovchi xodimlardan jami 227 ta murojaat kelib tushdi. Tahlillarga ko‘ra, murojaatlarning 192 tasi yoki 84 foizi qanoatlantirilgan. Jamoaviy murojaatlar hisobiga jami 206 nafar fuqaroning mehnatga oid huquqlari tiklandi. Shu yo‘nalishda fuqarolik ishlari bo‘yicha sudlarga 72 ta da'vo arizasi kiritildi. Ularning 53 tasi yoki 73 foizi ijobiy hal etildi. Bugun 10 ta da'vo arizasi ko‘rib chiqish jarayonida.

Viloyat Kengashi yordami bilan yilning o‘tgan to‘qqiz oyi mobaynida kelib tushgan murojaatlar asosida xodimlarga jami 2 milliard 55 million so‘m miqdorida majburiy progul kunlari uchun ish haqlari, o‘z muddatida to‘lanmagan ish haqlari va unga tenglashtirilgan to‘lovlar, sog‘lig‘iga yetkazilgan zarar uchun to‘lovlar undirildi.

Kasaba uyushmalarining faoliyati faqat xodimlarning mehnat huquqlarini himoya qilish bilan cheklanmaydi. Ularning ijtimoiy qo‘llab-quvvatlanishi, salomatligini mustahkamlash ham muhim vazifalar qatoriga kiradi. Joriy yilda 13 501 nafar xodim va ularning oila a'zolari uchun sayohatlar tashkil etildi. 3 mingdan ziyod xodim sihatgohlarda sog‘lomlashtirildi.

Inson qadrini ulug‘lash, mehnatkashlarning huquq va manfaatlarini himoyalash, ular uchun munosib mehnat va ijtimoiy sharoitlar yaratish – kasaba uyushmalari faoliyatining bosh mezoni. Mamlakatimizda bu ezgu maqsadlar yo‘lida olib borilayotgan tizimli ishlar, sa'y-harakatlar kasaba uyushmalarining jamiyat hayotidagi o‘rni va ahamiyatini yanada oshirmoqda.

Bugun yurtimiz bo‘ylab keng nishonlanayotgan 11-noyabr – O‘zbekiston kasaba uyushmalari kuni munosabati bilan soha xodimlarini va barcha a'zolarini qizg‘in muborakbod etib, ularga sihat-salomatlik, kelgusi ishlarida yanada ulkan omadlar tilaymiz.

E'tirof

QADRIYATLARNI SO‘ZDA EMAS, AMALDA ULUG‘LAYOTGAN PEDAGOG



Yosh avlod tarbiyasida milliy qadriyatlarning o‘rni beqiyos. Ammo ularni tadbirlar, ma'ruzalar yoki shiorlar orqali emas, bolalarning kundalik hayoti, dunyoqarashi va xatti-harakatlarida namoyon etish kerak. Buning uchun esa pedagogdan izlanish, yangicha yondashuv va eng muhimi, shaxsiy namuna talab etiladi.

Toshloq tumanidagi 15-maktabning ma'naviy-ma'rifiy ishlar bo‘yicha direktor o‘rinbosari Hanifaxon Roziqova ana shunday yondashuvi bilan respublika miqyosida e'tirofga sazovor bo‘ldi. U Ta'lim va ilm-fan vazirligi tomonidan ilk bor tashkil etilgan “Milliy qadriyatlar targ‘ibotchisi” respublika tanlovida – 14 nafar finalchi orasidan birinchi o‘rinni qo‘lga kiritib, 100 million so‘m pul mukofoti bilan taqdirlandi.

Tanlov O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2026 yil 28 yanvarda qabul qilingan “Uzluksiz ta'lim tizimida yoshlarni milliy qadriyatlarga sadoqat va vatanparvarlik ruhida tarbiyalash samaradorligini oshi-rish dasturini tasdiqlash to‘g‘risida”gi 34-son qarori ijrosini ta'minlash doirasida tashkil etildi.

– 25 yillik pedagogik va besh yillik ma'naviy-ma'rifiy sohadagi tajribalarim bilan o‘rtoqlashish, shuningdek, ilg‘or tajribalardan namunalar olish uchun tanlovda ishtirok etishga ariza yubordim. Tanlovning barcha bosqichlari adolatli, shaffof va yuqori saviyada tashkil etildi, – deydi g‘olib.

Darhaqiqat, tanlovda ishtirokchilarning faoliyati, amaliy natijalari va yangi tashabbuslariga alohida e'tibor qaratildi. Hanifaxon Roziqovaning taqdimotida esa maktabda yo‘lga qo‘yilgan bir nechta samarali loyiha va tajribalar o‘z aksini topdi. Jumladan, oila-mahalla-maktab hamkorligi doirasida amalga oshirilayotgan “Uch tayanch hamkorligi va ma'naviy muhit” yo‘nalishidagi ishlar hakamlar e'tiborini tortdi. Bu hamkorlikning amaliy samarasi ham bor: maktab besh yildan buyon “Jinoyatdan xoli maktab” sifatida faoliyat yuritib kelmoqda.

Shuningdek, “Maktab-alьfa avlod-ota-ona” startapi hamda an'anaviy tarzda o‘tkazib kelinayotgan “Farzandimga atalgan bir kun” loyihasi taqdim etildi. Ushbu tashabbuslar ota-onalarning maktab hayotidagi ishtirokini kuchaytirish, farzandlar bilan muloqotni mustahkamlash va ta'lim-tarbiya jarayonida hamjihatlikni ta'minlashga xizmat qilmoqda.

– Media etakchi o‘quvchilarni tayyorlash va ular yordamida ota-onalar uchun media savodxonlik bo‘yicha amaliy treninglar o‘tkazish mumkin. Chunki bugun ota-onalarning ham axborotni tahlil qilish, soxta xabarlarni haqiqiysidan ajratish borasida bilimlarini oshirish zarur. Bu orqali o‘quvchilar va ota-onalarda axborot xurujlariga nisbatan kiberimmunitet hamda tanqidiy fikrlash ko‘nikmalarini shakllantirishga erishamiz, – deydi u.

Bu taklifning ahamiyati – unda o‘quvchi bilim olish bilan cheklanmay, oilasida ham axborot madaniyatini yuksaltirishga hissa qo‘shuvchi faol ishtirokchi sifatida namoyon bo‘ladi.

Maqolamiz qahramoni kelgusida ham yoshlarda vatanparvarlik, yurtga sadoqat va daxldorlik tuyg‘ularini mustahkamlashga qaratilgan bir qator tashabbuslarni davom ettirishni rejalashtirgan. “Buvijonimdan eshitganlarim” loyihasi orqali katta avlodning hayotiy tajribasi va oilaviy qadriyatlarini yoshlarga etkazish, “Mehr ulashamiz” aktsiyasi bilan ezgulik va saxovat tuyg‘ularini kuchaytirish, “Kitob o‘qi – kubok ol” loyihasi orqali esa kitobxonlikka qiziqishni oshirish ko‘zda tutilgan. Ayniqsa, “Farzandimga atalgan bir kun” loyihasi ota-onalarning maktab hayotidagi ishtirokini faollashtirish, oilaviy kitobxonlik va sog‘lom muloqotni rivojlantirish, oila, mahalla va maktab o‘rtasidagi hamkorlikni mustahkamlashga xizmat qilishi bilan ahamiyatlidir.

Tanlovning tuman (shahar) bosqichida 4 750 nafar, hududiy bosqichining birinchi saralash jarayonida esa 624 nafar nomzod ishtirok etganini hisobga olsak, Hanifaxon Roziqovaning respublikada birinchi o‘rinni egallashi salmoqli natijadir.

Muhammadshukur MUHAMMADJONOV

Munosabat

Tibbiyot sohasida 30 yildan buyon faoliyat yuritib kelaman. Shundan 22 yilini oilaviy shifokor sifatida aholi salomatligini muhofaza qilishga bag‘ishladim. 2011-yildan buyon Quva tumanidagi 3-oilaviy poliklinikada rahbar lavozimida ishlab kelaman. Shu davr mobaynida sohadagi ko‘plab islohotlarning bevosita ishtirokchisi bo‘ldim.

SHIFOKOR QADRI YUKSALMOQDA

Ha, so‘nggi yillarda tibbiyot sohasiga qaratilayotgan e'tibor siyosat darajasiga chiqdi. Tizimdagi kamchiliklar, muammolar birin-ketin o‘z yechimini topmoqda.

27-oktyabr kuni Prezidentimiz soha vakillari bilan uchrashdi. Bu uchrashuv barchamiz uchun katta rag‘bat bo‘ldi, desam, adashmagan bo‘laman.

Uchrashuvda tibbiyot tizimini rivojlantirish, shifokor va hamshiralarning mehnatini munosib rag‘batlantirish, ijtimoiy himoyasini kuchaytirish, xizmat sifatini oshirish masalalariga alohida e'tibor qaratildi. Ayniqsa, birlamchi tibbiy yordamni takomillashtirishga oid rejalar biz, oilaviy shifokorlar uchun muhim. Chunki aholi bilan eng yaqin muloqotda bo‘ladigan, kasalliklarning oldini olish, erta aniqlash va bemorlarni mutaxassislarga yo‘naltirishdagi asosiy mas'uliyat aynan shu bo‘g‘in zimmasida.

Quva tumanida birlamchi tibbiy yordamning yangi modeli tajriba-sinov tariqasida joriy etilgan. Tizimning raqamlashtirilishi ish samaradorligini oshirmoqda, aholi murojaatlarini nazorat qilish va bemorlar bilan ishlashda qulaylik yaratmoqda. Ushbu modelni yana 100 ta tumanda joriy etish vazifasi belgilangani uning ahamiyatini yanada oshiradi.

Kafolatlangan tibbiy yordam paketi ham kengayadi: 2027-yildan bepul beriladigan dori vositalari soni 69 tadan 73 taga, tibbiy tekshiruv turlari esa 36 taga yetkaziladi. Bu – doimiy davolanishga muhtoj bemorlar uchun muhim imkoniyat. Shuningdek, oshqozon, yo‘g‘on ichak, prostata bezi va o‘pka saratonini erta tashxislash uchun har yili 700 milliard so‘m mablag‘ ajratilishi belgilanmoqda.

Islohotlar samarasi, avvalo, malakali va mas'uliyatli kadrlarga bog‘liq. Shu bois moddiy rag‘batlantirish bo‘yicha tashabbuslar biz uchun alohida ahamiyatli. Oliy ma'lumotli hamshiralarga bakalavriat uchun 1,5 million, magistratura uchun 2,5 million so‘m, oilaviy tibbiyot yo‘nalishidagi tor soha mutaxassislariga 5,5 million so‘mgacha ustama belgilanmoqda. 2027-yil 1-iyuldan tibbiyot va farmatsevtika xodimlarini davlat ro‘yxatidan o‘tkazish tizimi yo‘lga qo‘yiladi, u 2030-yildan majburiy bo‘ladi. Ro‘yxatdan o‘tgan shifokor va farmatsevtlarga 7 million, hamshiralarga 3,5 million so‘mgacha ustama to‘lanadi.

Ijtimoiy himoya borasida kamida 15 yil ish stajiga ega xodimlarning ipoteka kreditlarini qisman qoplash uchun 50 milliard so‘m ajratiladi, har yili 500 nafar yosh tibbiyot xodimining boshlang‘ich to‘lovidan 25 foizi qoplanadi. Birlamchi bo‘g‘in xodimlari bosqichma-bosqich bepul maxsus kiyim-bosh bilan ta'minlanadi. “Ibn Sino” ordenini ta'sis etish taklifi esa shifokorlar mehnatining munosib e'tirofi bo‘ldi, desam, haq gapni aytgan bo‘laman.

Faoliyatim davomida shunga amin bo‘ldimki, tibbiyotda eng katta natija bu insonning sog‘ayib, hayotga sog‘lom qaytishi. Buning uchun shifokorda bilim, tajriba, mas'uliyat va mehr bo‘lishi kerak. O‘z navbatida, yaratilayotgan yangi imkoniyatlar bizdan o‘z ustimizda ko‘proq ishlashni, zamonaviy bilimlarni egallashni va aholiga sifatli xizmat ko‘rsatishni talab etadi.

Odinaxon ORIPOVA,
Quva tumanidagi 3-oilaviy poliklinika mudirasi

Matbuot anjumani

PAXTACHILIKDA YANGI YONDASHUV – YUQORI HOSIL VA SAMARADORLIK OMILI

Qishloq xo‘jaligida yuqori hosildorlikka erishish, yer va suv resurslaridan oqilona foydalanish, ishlab chiqarish jarayonlariga zamonaviy texnologiyalarni joriy etish bugungi kunning muhim talablaridan biri. Ayniqsa, paxtachilikda intensiv texnologiyalarga o‘tish o‘z samarasini berayotgani bilan ahamiyatli.

Ahmad Farg‘oniy nomidagi viloyat axborot-kutubxona markazida qishloq xo‘jaligi sohasida joriy yilda amalga oshirilgan ishlar yuzasidan matbuot anjumani bo‘lib o‘tdi. Viloyat hokimligi tashabbusi bilan tashkil etilgan mazkur tadbirda viloyat qishloq xo‘jaligi boshqarmasi boshlig‘i o‘rinbosari Dilshodjon Fozilov, Sirdaryo-So‘x irrigatsiya tizimlari havza boshqarmasi boshlig‘i Faxriddin Tursunov, faol fermer xo‘jaliklari rahbarlari, jurnalist va blogerlar ishtirok etdi.

Ta'kidlanganidek, bu yil mamlakatimizda 5 million tonnadan ziyod paxta xirmoni yaratildi. Ushbu ulkan natijada viloyatimiz dehqon-fermerlarining ham munosib hissasi bor. Respub-lika xirmonining qariyb 8 foizi farg‘onaliklar mehnati bilan bunyod etildi.

2026-yil mavsum yakuniga ko‘ra, viloyatimizdagi 2548 ta fermer xo‘jaliklarining 72 ming gektar maydonlarida 393 946 tonna paxta xomashyosi tayyorlandi. 371 500 tonnalik shartnoma majburiyati 106 foizga bajarilib, belgilangan hajmdan 22 446 tonna ko‘p paxta topshirildi.

E'tiborli jihati, paxta yetishtiruvchi barcha 14 ta tuman asosiy shartnoma majburiyatini ortig‘i bilan bajardi.

Mavsumda 39 600 gektarda qo‘shqator usulini qo‘llash, shu jumladan, 23040 gektarda intensiv usulda paxta yetishtirish tajribasidan foydalanish nazarda tutilgan. Terimni mexanizatsiyalash uchun 65 ming gektardan ziyod maydon belgilandi. O‘z navbatida, paxtachilikda intensiv usulni qo‘llash, ekish sxemasini o‘zgartirish, yangi navlarni sinovdan o‘tkazish hamda agrotexnik tadbirlarga ilmiy yondashish orqali salmoqli natijalarga erishildi.

Xususan, paxta qo‘shqator usulida ekildi. Ilgari foydalanilgan mahalliy navlarning ayrimlari ko‘sak qurti zararkunandalariga moyilligi bilan ajralib turgan bo‘lsa, ekilayotgan yangi navlar ushbu zararkunandaga chidamliligi bilan ahamiyatlidir. Shu maqsadda Xitoydan to‘qqiz xil nav olib kelinib, har bir hududning iqlim sharoiti, tuproq unumdorligi o‘rganildi. Shunga qarab, mos navlarni joylashtirish va almashlab ekish ishlari tashkil etildi.



Yana bir muhim jihat – paxta yig‘im-terimida mexanizatsiyalashtirish darajasining oshganidir. Joriy yilda qariyb 300 ta paxta terish mashinasi olib kelinib, hosilni yig‘ib olishda foydalanildi. Bu esa ishchi kuchiga bo‘lgan ehtiyojni kamaytirish, vaqt va xarajatlarni tejash imkonini berdi. Intensiv usulning joriy etilishi mineral o‘g‘itlardan foydalanishda ham tejamkorlikka xizmat qilmoqda.

Raqamlarga e'tibor qaratadigan bo‘lsak, 2016-yilda viloyatda 100 ming gektar maydonga paxta ekilib, o‘rtacha 20-30 tsentnerdan hosil olingan. Joriy yilda esa 72 ming gektar maydonda paxta yetishtirilib, o‘rtacha hosildorlik 56 tsentnerni tashkil etdi.

Bu natijalarga erishishda xorijiy tajribani o‘rganish, agrotexnik tadbirlarni takomillashtirish, suv tejovchi texnologiyalarni keng joriy etish va ekish tizimini o‘zgartirish muhim omil bo‘ldi.

Ta'kidlash joizki, paxtachilikda intensiv usulga o‘tish jarayoni Prezidentimizning tegishli qarori asosida 2023-yilda, tajriba tariqasida 10 gektar maydonda boshlangan edi. Yillar davomida tajriba orttirilib, mavjud kamchilik va muammolar bartaraf etildi. Bugun esa ushbu texnologiya o‘z samarasini ko‘rsatmoqda. Kelgusida intensiv usulda paxta yetishtiriladigan maydonlarni 50 ming gektarga yetkazish rejalashtirilgan.

Matbuot anjumanida suv resurslaridan samarali foydalanish, irrigatsiya tizimini takomillashtirish va suv tejovchi texnologiyalarni keng joriy etish masalalariga ham alohida e'tibor qaratildi.

Sirdaryo-So‘x irrigatsiya tizimlari havza boshqarmasi boshlig‘i Faxriddin Tursunovning ta'kidlashicha, mustaqillikning dastlabki yillarida viloyat bo‘yicha yiliga 4,5 milliard kub metr suv sarflangan bo‘lsa, bugungi kunda ushbu ko‘rsatkich 3,6 milliard kub metrni tashkil etmoqda. Bunda suv tejovchi texnologiyalarning joriy etilishi, ariq va kanallarni betonlashtirish ishlari muhim ahamiyat kasb etmoqda. Shu bilan birga, sohada raqamlashtirish jarayonlari ham izchil davom ettirilmoqda. Suvdan foydalanish holati har o‘n kunda monitoring qilib borilayotir.

Albatta, suv resurslarini tejashda fermerlarning manfaatdorligini oshirish ham muhim. Shu bois suv tejovchi texnologiyalarni joriy etayotgan xo‘jaliklarga davlat tomonidan turli imtiyoz va subsidiyalar ajratilmoqda.

Tadbirda o‘z tajribasi bilan o‘rtoqlashgan Toshloq tumanidagi “Luqmonov” fermer xo‘jaligi rahbari Tohirmalik Luqmonov ham bu borada amalga oshirilayotgan ishlarga to‘xtaldi.

– Xo‘jaligimizda 166 gektar maydonga paxta ekildi. Mavsum yakunida har gektardan o‘rtacha 61 tsentnerdan hosil olishga erishdik. Natijada qariyb ming tonna paxta terib oldik. Bunda quyosh panellari, suv tejovchi texnologiyalar, tomchilatib sug‘orish tizimi va agrotexnik tadbirlarni o‘z vaqtida, to‘g‘ri tashkil etish muhim omil bo‘ldi. Davlat tomonidan biz, fermerlarga katta e'tibor qaratilmoqda. Suv tejovchi vositalar uchun subsidiyalar ajratildi, soliq imtiyozlaridan ham foydalanyapmiz, – deydi u.

Matbuot anjumani davomida jurnalist va blogerlar o‘zlarini qiziqtirgan savollarga soha mutasaddilaridan javob oldilar.

Bir so‘z bilan aytganda, qishloq xo‘jaligida yuqori natijalarga erishish faqat ekin maydonlarini kengaytirish bilan emas, balki mavjud yer va suv resurslaridan samarali foydalanish, ilmiy yondashuv, zamonaviy texnologiyalar hamda ilg‘or tajribalarni amaliyotga tatbiq etish bilan chambarchas bog‘liq. Viloyat paxtachiligida boshlangan bu jarayon esa soha samaradorligini oshirish yo‘lida muhim qadam bo‘lmoqda.

Alisher SHOKIROV,
“Yangi Farg‘ona” muxbiri
Muslimbek TO‘LANOV olgan surat.

YOŞLAR SAHIFASI

YAŞIL ORZULAR IJOBATI

Ilmga muhabbat, tinimsiz izlaniş va yuksak maqsadlar insonni ulkan marralar sari yetaklaydi. Ayniqsa, bugun ilm-fan va innovatsiyalar maydonida öz salohiyatini namoyon etayotgan yoşlarimizning yutuqlari har qança e'tirofga munosib. Maftunaxon Nizomiddinova ana şunday izlanuvçan va iqtidorli yoşlardan biri.



2003-yilda Farğona tumanida tuğilgan M.Nizomiddinova bugun Farğona davlat texnika universitetining ikkinçi bosqiç magistranti. Beruniy nomidagi davlat stipendiyasi sohibi Maftunaxon öz kelajagini muhandislik va ilmiy izlanişlar bilan boğlagan.

Odatda, muhandislik sohasi deyilganda, köz oldimizga murakkab texnikalar, hisob-kitoblar va ulkan işlab çiqariş jarayonlari keladi. Maftunaxon esa bu sohada xotin-qizlar ham katta muvaffaqiyatlarga erişa olişini amaliy natijalari bilan isbotlamoqda.

Yoş tadqiqotçining izlanişlari bugungi kunning eng dolzarb masalalaridan biri – ekologiya bilan çambarças boğliq. U şahar transportida yonilği samaradorligini oşiriş, avtomobillarning atrof-muhitga salbiy ta'sirini kamaytiriş va energiya resurslaridan oqilona foydalaniş yönalişlarida tadqiqotlar olib bormoqda. Izlanişlar öz samarasini beryapti. Şuningdek, törtta dasturiy mahsulot uçun guvohnoma olib, korxonalar faoliyatini takomillaştirişga qaratilgan bir qator amaliy işlanmalarda iştirok etdi.

Uning innovatsion ğoyalari ham munosib e'tirof etilmoqda. Jumladan, 2025-yilda "Eco Innovation–2025" körgazmasida birinçi örinni egallab, 6 million söm pul mukofotiga sazovor böldi. 2026-yilda "Greyen Spark" tanlovining viloyat, "Uluğbek vorislari" tanlovining tuman bosqiçlarida ğoliblikni qölga kiritdi. Eng e'tiborli yutuqlaridan biri esa "EcoBombs" innovatsion ekologik loyihasi bilan "Yaşil taşabbus" tanlovining respublika bosqiçida ğolib bölib, 60 million söm pul mukofoti bilan taqdirlanganidir. Bu muvaffaqiyat uning ekologik muammolarga yeçim izlaş yölidagi intilişlari e'tirofidir.

Bugun Maftunaxon Nizomiddinova erişgan yutuqlari ortida tinimsiz mehnat, qat'iyat va ilmga bölgan çeksiz mehr mujassam. Zero, ilmga oşno qalbning orzulari hamişa yuksak böladi.



ŞAHINAXON – OSIYO REKORDINI YANGILAGAN ÇEMPION

Yuksak marralar sari intiliş, öz imkoniyatlariga işonç va tinimsiz mehnat. Bugun xalqaro sport maydonlarida Özbekiston bayroğini baland kötarayotgan Şahinaxon Yigitaliyevaning muvaffaqiyatlari zamirida ana şu fazilatlar mujassam.

Yaponiyada bölib ötgan "Aiçi-Nagoya – 2026" V Paraosiyo öyinlarida Şahinaxon Yigitaliyeva yana bir bor öz mahoratini namoyon etdi. Ayollar örtasida F46 klassida nayza uloqtiriş bahslarida iştirok etgan hamyurtimiz 44,99 metr natija qayd etib, oltin medalni qölga kiritdi. Eng muhimi, uşbu natija orqali Osiyo rekordini ham yangiladi.

Mazkur yönalişda 41,91 metr natija körsatgan yana bir özbekistonlik sportçi – Husnoraxon Qudratullayeva kumuş medalga sazovor böldi. Osiyo miqyosidagi uşbu yirik musobaqada erişilgan ğalaba Şahinaxonning sportdagi salohiyati, qat'iyati va muntazam mehnatining yorqin ifodasidir. Bunday natijalar bir kun yoki bir yil içida qölga kiritilmaydi. Ularning ortida uzoq davom etgan maşğulotlar, murabbiylar mehnati, oilaning qöllab-quvvatlaşi va har bir sinovdan saboq çiqariş qobiliyati turadi.

Şahinaxonning sport sari ilk qadamlari esa bundan bir neça yil avval, u maktabning beşinçi sinfida öqib yurgan paytlarida boşlangan edi. 2019-yil noyabr oyida jismoniy tarbiya fani öqituvçisining tavsiyasi bilan maşğulotlarga qatnay boşlagan qiz dastlab sportga unçalik qiziqmaganini eslaydi. Ota-onasi ham unga sport bilan şuğullanişni maslahat bergan. Ammo professional sportçilarni körib, ularning maşğulotlarini kuzatgaç, Şahinaxonning qalbida sportga nisbatan qiziqiş tobora ortib bordi.

Şahinaxon 2021-yildan boşlab musobaqalarda qatnaşa boşladi. Dastlabki xalqaro Gran-pri musobaqalaridagi sovrinli örinlar uning öziga bölgan işonçini mustahkamladi. 2023-yilda Paraosiyo öyinlarida çempionlikni qölga kiritib, musobaqa rekordini yangilaşi esa sport faoliyatidagi muhim bosqiçlardan biri böldi. 2024-yilda Parijda ötkazilgan Paralimpiya öyinlarida kumuş medalni qölga kiritgan Şahinaxon jahonning kuçli sportçilari qatorida ekanini yana bir bor isbotladi. 2025-yilda Hindistonda bölib ötgan jahon çempionatida ikkinçi örinni egalladi. Şu yili yoşlar Paraosiyo öyinlarida uçta oltin medalni qölga kiritib, özining köp qirrali salohiyatini namoyon etdi.

Bugungi kunda uning sport yöli xalqaro musobaqalardagi ğalabalar va yangi marralar bilan boyib bormoqda. "Aiçi-Nagoya – 2026" V Paraosiyo öyinlaridagi oltin medal va Osiyo rekordi esa bu yöldagi navbatdagi ulkan yutuq böldi. Şahinaxon uçun har bir ğalaba keyingi marralar sari taşlangan qadamdir.

– Eng katta maqsadim – Paralimpiya öyinlarida bir neça bor çempion böliş, jahon rekordlarini yangilaş va xalqaro maydonlarda Özbekiston bayroğini baland kötariş. Menga bildirilayotgan işonçni oqlab, yurtimiz şarafini munosib himoya qilişni istayman. Şuningdek, kelajakda sportdagi faoliyatimni davom ettirib, öz tajribamni yoş sportçilar bilan bölişişni maqsad qilganman. Ulardan ham Paralimpiya çempionlari va jahon rekordçilari yetişib çiqişiga hissa qöşişni xohlayman. Işonamanki, tinimsiz mehnat, qat'iyat va ustozlarimning kömagi bilan hali köplab yutuqlarga erişaman, – deydi çempion qiz.

Materiallarni jurnalist Şohsanam EŞMATOVA tayyorladi.

ODDIY BÖZGA RANG BERIB...

Ba'zan katta orzular oddiy narsalardan boşlanadi. Kimdir bir parça matoga qarab, undan kiyim tikişni öylaydi, yana kimdir esa şu matoda milliy qadriyatlarimizni, gözallik va nafislikni aks ettirişni istaydi.



Özbekiston tumanining Köl Elaş qişloğida yaşovçi Dilafrözxon Abdullayeva uçun oddiy böz matosi ana şunday orzularning boşlaniş nuqtasi böldi. Bugun u böz matosiga tabiiy ranglar berib, ipak, atlas va adras bilan uyğunlaştirgan holda, öziga xos liboslar yaratmoqda. Uning ijod namunalari milliylik va zamonaviylikni birlaştirgani, tabiiyligi hamda betakror körinişi bilan e'tibor qozonmoqda. Böz – xalqimizning kundalik turmuşida qadimdan foydalanib kelingan matolardan biri. Ammo unga yangiça nigoh bilan qaraş, oddiy matodan öziga xos liboslar yaratiş uçun did, sabr va ijodiy izlaniş zarur. Dilafrözxonning hunari ham aynan şunday izlanişlar bilan rivojlanib bormoqda. U matoga rang berişda tabiiy mahsulotlardan foydalanadi. Piyoz pöçoği va lavlagi singari oddiy mahsulotlardan rang oliş, ularni matoga singdiriş, keyin esa quritiş va işlov beriş – öziga xos mehnat jarayoni. Har bir bosqiçda ranglar tanlovi, issiq va sovuq tuslarning uyğunligi, libosga mos naqş va şakllarni topiş hunarmanddan alohida mahorat talab etadi.

– Böz matosini olib, avvalo, tabiiy mahsulotlar yordamida rang beramiz. Piyoz pöçoğidan ham, lavlagidan ham çiroyli ranglar oliş mumkin. Matoga işlov berilgaç, uni quritamiz, dazmollaymiz va keyingi jarayonlarga ötamiz. Quritişning özi ham bir neça kun vaqt oladi. Har bir rangning öz örni bor. Ularni bir-biriga moslaştirib, qaysi libosga qanday tus yaraşişini hisobga olamiz. Turli tadbirlar va festivallarda çet elliklar, ayniqsa, işlarimizning öziga xosligiga qiziqişadi. Mahsulotlarimiz tabiiy paxtadan tayyorlanadi, havo yaxşi ötadi. Eng muhimi, oddiy böz matosiga işlov berib, undan rang-barang va zamonaviy liboslar yaratişimiz ularni hayratga soladi. Xaridorlarning qiziqişi savdolarimiz oşişiga, işimizni yanada kengaytirişga turtki bermoqda, – deydi Dilafrözxon Abdullayeva.

Dilafrözxon uçun hunarmandçilik faqat daromad manbai emas. Bu – ijod qiliş, milliy qadriyatlarni asraş va öz mehnati orqali boşqalarga ham namuna böliş imkoniyati. Uning fikriça, ayol kişi öz qiziqişi va iste'dodini rivojlantiriş orqali nafaqat öz hayotini, balki atrofidagi insonlar hayotini ham özgartirişi mumkin. Bir paytlar şunçaki qiziqiş bilan boşlangan işning bugun xaridorlar e'tiborini tortişi, savdoga ta'sir körsatişi va faoliyatni kengaytirişga yordam beriş buning yaqqol misolidir.

Dilafrözxon Abdullayevaning hayot yöli şuni körsatadiki, katta natijalarga erişiş uçun doimo katta imkoniyatlardan boşlaş şart emas. Ba'zan bir parça mato, bir ezgu ğoya va unga bölgan işonçning özi kifoya. Muhimi, öz işingni seviş, izlanişdan töxtamaslik va yaratayotgan mahsulotingga qalbingni qöşa biliş dir. Ana şunda oddiy böz ham rangga, rang esa orzularga aylanadi.

Körik-tanlov

Ba'zan birgina tanlov, ustozning rağbati yoki samimiy e'tirof yoş qalbdagi ijod uçqunini alangaga aylantirişi mumkin. «Uyğoniş» tanlovining asosiy maqsadi ham yoş avlodning ijodiy salohiyatini kaşf etiş, ularni adabiyotga yaqinlaştiriş va yangi marralar sari ruhlantirişdan iborat.

«UYĞONIŞ» – YOŞ ISTE'DODLAR KAŞF ETILGAN MAYDON

Yaqinda Özbekiston Yozuvçilar uyuşmasi hamda «Özsanoatqurilişbank» ATB hamkorligida taşkil etilgan mazkur tanlovning respublika bosqiçi bölib ötdi. Unda iştirokçilar öz bilim va iqtidorlarini namoyon etiş, ijodiy imkoniyatlarini sinab köriş hamda badiiy tafakkurini ifoda etiş imkoniga ega bölişdi. Yakunda turli yönalişlarda ğolib va sovrindorlar aniqlandi.

Quvonarlisi şundaki, sovrindorlar qatorida farğonalik yoş ijodkor Umidjon Ğofurov ham bor. U tanlovning nasr yönalişida öz ijodiy işlari bilan qatnaşib, faxrli 3-örinni egalladi va 10 million söm pul mukofoti bilan taqdirlandi. Aslida, har qanday tanlovning ahamiyati faqat ğoliblar soni yoki mukofotlar bilan belgilanmaydi. Uning haqiqiy natijasi yoşlarning öz kuçiga işonçi ortgani, yangi iste'dodlar kaşf etilgani va adabiyotga bölgan qiziqişi yanada mustahkamlanganida namoyon böladi.

Ha, «Uyğoniş» tanlovi ham çin ma'noda yoş iste'dodlar kaşf etilgan maydonga aylandi. Bugun ğoliblikni qölga kiritgan yoşlar uçun bu e'tirof yangi ijodiy marralar sari rağbat bölsa, ne ajab.

Hayotjon ABDULLAYEV,
"Yangi Farğona" muxbiri

Matonat

OLTIN MEDAL SARI YÖL

Katta musobaqalarda ğalaba qozoniş uçun faqat kuç va mahoratning özi kamlik qiladi. Ba'zan hal qiluvçi lahzalarda çarçoqni yengiş, raqibning har bir harakatini ilğaş va oxirgi soniyagaça taslim bölmaslik kerak. Para dzyudoçi, 23 yoşli Muhammad Abduqulov uçun ham çempionlik sari yöl ana şunday keskin va murosasiz bellaşuvlardan iborat böldi.



95 kilogramm vazn toifasida para-dzyudoning J1 yönalişida bahs olib borgan sportçi uçun çempionatning har bir uçraşuvi jiddiy sinov böldi. Ammo u maydonga faqat ğalaba uçun çiqqan edi. Ayniqsa, yarim final bahsi uning irodasi va mahoratini yana bir bor sinovdan ötkazdi.

Raqib tajribali eronlik sportçi edi. U IBSA Jahon öyinlari ğolibi, xalqaro maydonlarda katta tajriba töplagan dzyudoçilardan biri hisoblanadi. Har ikki sportçi ham ğalaba uçun bor kuçini işga soldi. Asosiy vaqt tugaganidan keyin ham kuraş davom etdi. Bunday vaziyatda jismoniy tayyorgarlik bilan birga, ruhiy barqarorlik ham hal qiluvçi ahamiyat kasb etadi. Muhammad esa oxirigaça kuraşdi va final yöllanmasini qölga kiritdi.

Finalda uni yana bir özbekistonlik sportçi kutib turardi. Bu uçraşuvning öziga xos tarixi bor edi: ötgan yili Qozoğistonda ötkazilgan Osiyo çempionatida aynan şu jamoadoşi bilan kuraşga tuşib, bronza medalini qöldan çiqargan edi. Bu safar esa vaziyat boşqaça böldi. Sportçi xatolari ustida tinimsiz işlaganligi sababli imkoniyatdan unumli foydalanib, jamoadoşi ustidan ğalaba qozondi va çempionlik şohsupasining eng yuqori poğonasiga kötarildi.

Qahramonimizning sportdagi ilk yutuqlari ham uning bugungi natijasiga zamin yaratgan. U para dzyudo bilan şuğullana boşlaganidan bir yil ötib, Özbekiston çempionatida birinçi örinni egallagan va milliy terma jamoa safiga qabul qilingan. 2023-yilda Misrning Giza şahrida ötkazilgan Gran-pri musobaqasida bronza medaliga sazovor bölgan.

Uning ta'kidlaşiça, yaratilgan şaroit va körsatilgan e'tibor sportçilarga öz oldiga katta maqsadlar qöyiş, xalqaro maydonlarda munosib iştirok etiş imkonini bermoqda.

Muhammad Abduqulov uçun bu ğalaba – yangi maqsadlar sari qöyilgan qadam. Uning eng katta orzularidan biri – 2028-yilda Los-Anjeles şahrida ötkaziladigan Paralimpiya öyinlarida yurtimiz bayroğini şohsupada kötariş va oltin medalni qölga kiritiş. Bu maqsad yölida uni oldinda jahon çempionatlari va Gran-pri musobaqalari kutmoqda.

Sarvinoz ABDURASULOVA

Ichki turizm

MAROQLI SAYOHAT

Farg‘ona viloyati madaniyat, sport va turizm xodimlari kasaba uyushmasi qo‘mitasi homiyligida viloyatdagi sport, madaniyat va turizm tashkilotlarida mehnat qilgan bir guruh faxriylar hamda xodimlar uchun Andijon shahriga sayohat uyushtirildi.



Viloyat kasaba uyushmalari tashkilotlari birlashmasi kengashi bilan hamkorlikda,11-noyabr – Kasaba uyushmalari kuni munosabati bilan tashkillangan mazkur sayohat guruhida 16 nafar sport faxriysi va 40 nafar madaniyat hamda turizm muassasalari xodimlari bor.



Diqqatga sazovor joylarga tashrif davomida mehmonlar viloyat tarixi muzeyi, XVIII asrda qurilgan madrasa inshooti, qurilishi XVIII asrda boshlanib, XX asrda tugallangan Andijon Jome masjidi majmuasi, «Bog‘i shamol» dam olish maskani hamda Zahiriddin Muhammad Bobur memorial muzeyini katta qiziqish bilan tomosha qildilar.

Tadbir doirasida tashkilotchilar tomonidan ishtirokchilar uchun bayram dasturxoni yozildi. Dilkash suhbat va uchrashuv asnosida viloyat sport faxriylari kengashi raisi A.Otajonov so‘zga chiqib, bir guruh sobiq sportchilari «Faxriy yorliq»lar bilan taqdirladi.

Tadbir yakunida faxriylar ushbu fayzli va mazmunli sayohat uchun kasaba uyushmasi qo‘mitasiga o‘zlarining cheksiz minnatdorliklarini izhor etdilar.

Matn va suratlar muallifi Shamsiddin QORABOYEV.

Qaror va ijro

SUVDAN FOYDALANISH TARTIBI BUZILSA...

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2026-yil 21-oktyabrda qabul qilingan “O‘zbekiston Respublikasining Suv kodeksi qabul qilingani munosabati bilan Vazirlar Mahkamasining «O‘zbekiston Respublikasi Suv xo‘jaligi vazirligi huzuridagi Suv xo‘jaligi obyektlari xavfsizligini va suvdan foydalanishni nazorat qilish inspektsiyasi faoliyatini tartibga soluvchi ayrim normativ-huquqiy hujjatlarni tasdiqlash to‘g‘risida» 2023-yil 27-sentyabrdagi 500-son qaroriga o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritish haqida”gi 585-son qarori bilan suv olish tartibini buzgan yuridik shaxslarga nisbatan moliyaviy sanktsiyalar qo‘llash, ularni hisoblash va to‘lash tartibi belgilandi.

Quyidagi holatlar suv olish tartibini buzish hisoblanadi:

belgilangan suv limitidan ortiqcha suv olish;

suv olish shartnomasisiz foydalanish;

suv olish joylarini suvni hisobga olish vositalari bilan jihozlamaslik;

maxsus ruxsatnomasiz suv olish;

o‘zboshimchalik bilan suv olish.

Suv olish hajmi suv hisoblagichlar, zamonaviy «aqlli» qurilmalar va «Suv hisobi» axborot tizimi ma'lumotlari asosida aniqlanadi. Hisoblagichlar mavjud bo‘lmagan hollarda esa belgilangan hajmiy hisoblash usullari qo‘llaniladi.

Qarordagi muhim yangiliklardan biri 2027-yil 1-yanvardan «Birinchi xato uchun – ogohlantirish» tamoyili joriy etilishidir. Unga ko‘ra, yil davomida birinchi marta qoidabuzarlik sodir etgan, biroq fuqarolar hayoti va sog‘lig‘iga hamda o‘zgalar mulkiga zarar yetkazmagan yuridik shaxslarga dastlab ogohlantirish beriladi.

Ogohlantirish «suvnazorat.uz» elektron platformasi orqali yuboriladi. Agar 10 kun ichida qoidabuzarlik bartaraf etilmasa, moliyaviy sanktsiya qo‘llaniladi. Moliyaviy sanktsiya qoidabuzarlik bilan olingan suv hajmi, bazaviy hisoblash miqdori hamda Suv kodeksining 164-moddasida belgilangan foizlar asosida hisoblanadi.

Agar moliyaviy sanktsiya qo‘llanilganidan keyin bir yil ichida qoidabuzarlik takroran sodir etilsa, sanktsiya besh baravar miqdorda qo‘llaniladi.

Tadbirkorlik subyektlari uchun quyidagi engilliklar nazarda tutilgan:

qaror va hisob-kitob olinganidan keyin bir oy ichida sanktsiya summasining 50 foizi ixtiyoriy to‘lansa, qolgan 50 foizini to‘lashdan ozod etiladi;

sanktsiya summasini olti oygacha bo‘lib-bo‘lib to‘lash mumkin. Buning uchun bir oy ichida kamida summaning oltidan bir qismi to‘lanishi lozim;

belgilangan muddatda ixtiyoriy to‘lov amalga oshirilmasa, inspektsiya sudga da'vo arizasi kiritadi.



Aniqlangan qoidabuzarliklar «suvnazorat.uz» platformasida elektron dalolatnoma bilan rasmiylashtiriladi. Yuridik shaxs rahbari dalolatnomaga o‘z e'tirozlarini kiritish huquqiga ega.

Dalolatnoma olinganidan keyin besh ish kuni ichida qo‘shimcha tushuntirish va e'tirozlar taqdim etish mumkin. Shuningdek, inspektsiya xodimlarining harakatlari yoki qarorlari ustidan yuqori turuvchi organga yoxud sudga shikoyat qilish huquqi mavjud. Shikoyat ko‘rib chiqilgunga qadar sanktsiyani qo‘llash jarayoni va muddati to‘xtatib turiladi.

Moliyaviy sanktsiyalardan tushgan mablag‘larning:

30 foizi – respublika byudjetiga;

70 foizi – Suv xo‘jaligi vazirligi huzuridagi Suv xo‘jaligini rivojlantirish jamg‘armasiga yo‘naltiriladi.

Shu bilan birga, «Suvxo‘jaliknazorat» inspektsiyasi zimmasiga suvdan foydalanuvchilar o‘rtasida o‘quv-amaliy treninglar tashkil etish, tushuntirish va profilaktika ishlarini kuchaytirish vazifalari ham yuklatildi.

Mazkur qaror suv resurslaridan foydalanishda qonuniylik va shaffoflikni ta'minlash, suv olish intizomini mustahkamlash hamda qoidabuzarliklarning oldini olishda muhim ahamiyatga ega. Shu bois fermer xo‘jaliklari, baliqchilik korxonalari va boshqa suv iste'molchilari belgilangan limitlarga rioya etishi, shartnomalarni rasmiylashtirishi, suv hisoblagichlaridan foydalanishi va o‘zboshimchalik bilan suv olishga yo‘l qo‘ymasligi zarur. Zero, suvni asrash hayotni asrashdir!

Farrux TO‘YCHIYEV,
«Suvxo‘jaliknazorat» inspektsiyasi Farg‘ona viloyati boshqarmasi boshlig‘i

Futbol

SO‘NGGI DAQIQALARDAGI JASORAT

Birinchi bo‘lim «o‘zaro hujumlar jangi» ostida o‘tdi: har ikki tomonda ham gol urish uchun qulay imkoniyatlar yuzaga keldi. Shunday bo‘lsa-da, himoyachilarning fidokorona o‘yini va zarbalardagi noaniqliklar tufayli birinchi taymda darvozalar daxlsizligi saqlanib qoldi.

Uchrashuvning ikkinchi bo‘limida katta kuch bilan oldinga tashlangan jamoamiz raqib jarima maydonchasini qamalga olib, ketma-ket golli vaziyatlarni yuzaga keltirdi, biroq yakuniy zarbalarga aniqlik yetishmadi.

O‘yin oxirlashib borayotgan bir paytda, maydonda haqiqiy dramatik voqealar rivoji kuzatildi. 88-daqiqa o‘tib borayotganda, himoyadagi qo‘pol xatolikdan unumli foydalangan mehmonlar tezkor qarshi hujumga o‘tishdi va penalti ishlashga muvaffaq bo‘lishdi. Raqib sardori Giorgi Papava imkoniyatdan adashmay foydalandi – 0:1.

Gol o‘tkazib yuborilganiga qaramay, vakillarimiz ruhan tushkunlikka tushishmadi va iroda ko‘rsatib, bor kuchlari bilan oldinga intilishdi. Hujumlarning birida jarima maydonchasi tashqarisidan berilgan zarbani darvozabon qaytardi, qaytgan to‘pga birinchilardan bo‘lib yetib kelgan Nurbek Sarsenbayev esa kuchli va aniq zarba bilan hisobni tenglashtirdi – 1:1.

Farg‘onadagi “Istiqlol” stadionida bo‘lib o‘tgan "Neftchi" – “OKMK” uchrashuvi murosasiz va juda shiddatli tarzda o‘tdi. Ilk daqiqalardanoq har ikkala jamoa faollik namoyish etib, hujumkor futbol tarafdori ekanliklarini ko‘rsatishdi.



Uchrashuvga hakam tomonidan qo‘shib berilgan 90+8-daqiqada esa zaxiradan o‘yinga qo‘shilgan Xurshid G‘iyosov qoyilmaqom zarbasi bilan raqib darvozasini ishg‘ol etib, mezbonlarga o‘ta muhim bo‘lgan 3 ochkoni taqdim etdi – 2:1.

Jamoamiz 26 ta o‘yindan keyin ochkolar sonini 61 taga yetkazib, peshqadamlikni mustahkamlab oldi. Turnir jadvalida ikkinchi o‘rinda kelayotgan "Paxtakor" bizdan ikki ochko, uchinchi o‘rinda kelayotgan "Navbahor" esa olti ochko orqada qolmoqda.

Doniyor ERGASHEV

E‘LONLAR

QÖQON DAVLAT UNIVERSITETI QUYIDAGI VAKANT LAVOZIMLARGA TANLOV E’LON QILADI

Kafedra mudiri lavozimiga:	
1. Özbek tili va adabiyoti kafedrasi	1 nafar.
2. Psixologiya kafedrasi	1 nafar.
3. Texnologik ta’lim va kutubxonaşunoslik kafedrasi	1 nafar.
Kafedra professori lavozimiga:	
1. Fakultetlararo tillar kafedrasi	1 nafar.
Kafedra dotsenti lavozimiga:	
1. Kimyo va ekologiya kafedrasi	1 nafar.
2. Matematika kafedrasi	1 nafar.
3. San’atşunoslik kafedrasi	1 nafar.
4. Fakultetlararo tillar kafedrasi	1 nafar.
Kafedra katta öqituvçisi lavozimiga:	
1. Matematika kafedrasi	1 nafar.
2. Milliy ğoya va huquq kafedrasi	1 nafar.
3. Kimyo va ekologiya kafedrasi	1 nafar.
Kafedra öqituvçisi (assistenti) lavozimiga:	
1. Pedagogika kafedrasi	1 nafar.
2. Falsafa va dinşunoslik kafedrasi	1 nafar.
3. Fakultetlararo tillar kafedrasi	1 nafar.
4. Muhandislik texnologiyalari (mutaxassislik: yengil sanoat muhandisligi) kafedrasi	1 nafar.
5. Muhandislik texnologiyalari (mutaxassislik: texnologik maşina jihozlari) kafedrasi	1 nafar.
6. Kimyo muhandisligi va geodeziya kafedrasi	1 nafar.
7. Matematika kafedrasi	1 nafar.
8. Geografiya va iqtisodiyot kafedrasi	1 nafar.
Kafedra öqituvçisi-stajyori lavozimiga:	
1. Kimyo muhandisligi va geodeziya kafedrasi	1 nafar.
2. Psixologiya kafedrasi	1 nafar.
3. Maxsus pedagogika kafedrasi	1 nafar.
4. Özbek tili va adabiyoti kafedrasi	1 nafar.
5. Milliy ğoya va huquq kafedrasi	1 nafar.
6. Geografiya va iqtisodiyot kafedrasi	1 nafar.
7. Raqamli texnologiyalar va sun’iy intellekt kafedrasi	1 nafar.
8. Elektr texnologiyalari kafedrasi	1 nafar.
9. Texnologik ta’lim va kutubxonaşunoslik kafedrasi	1 nafar.
10. San’atşunoslik kafedrasi	1 nafar.
11. Xalq ijodiyoti kafedrasi	1 nafar.

Tanlovga hujjatlar qabul qiliş muddati e’lon çiqqan kundan boşlab 1 oy. MUROJAAT UÇUN MANZIL: Qöqon şahar, Turon köçasi, 23-uy, 1-o`quv binosi, 220-xona. Telefon: 90 155 50 00.

Ma`muriyat

FARĞONA DAVLAT TEXNIKA UNIVERSITETI QUYIDAGI BÖŞ LAVOZIMLARNI EGALLAŞ UÇUN TANLOV E’LON QILADI

I. KAFEDRA PROFESSORI LAVOZIMIGA:		
1	Menejment va marketing kafedrasi	1
II. KAFEDRA DOTSENTI LAVOZIMIGA:		
1	Yengil sanoat muhandisligi kafedrasi	1
2	Muhandislik kommunikatsiyalari qurilişi kafedrasi	1
3	Iqtisodiyot kaferasi	1
III. KAFEDRA KATTA ÖQITUVÇISI LAVOZIMIGA:		
1	Transport vositalari muhandisligi kafedrasi	1
2	Maşinasozlik texnologiyasi kafedrasi	1
3	Energetika muhandisligi kafedrasi	1
4	Iqtisodiyot kaferasi	1
5	Dasturiy injiniring va kiberxavfsizlik kafedrasi	1
6	Özbek tili va tillarni örgatiş kafedrasi	1
7	Ijtimoiy fanlar va sport kafedrasi	1
IV.KAFEDRA ASSISTENTI (ÖQITUVÇISI) LAVOZIMIGA:		
1	Transport vositalari muhandisligi kafedrasi	1
2	Yengil sanoat muhandisligi kafedrasi	1
3	Energetika muhandisligi kafedrasi	1
4	Fizika kafedrasi	1
5	Muhandislik kommunikatsiyalari qurilişi kafedrasi	1
6	Iqtisodiyot kafedrasi	1
7	Menejment va marketing kafedrasi	1
8	Moliya va buxgalteriya hisobi kafedrasi	1
9	Kimyo muhandisligi kafedrasi	1
10	Oziq-ovqat texnologiyasi va xavfsizligi kafedrasi	1
11	Özbek tili va tillarni örgatiş kafedrasi	1

Tanlovga hujjatlar qabul qiliş muddati e’lon çiqqan kundan boşlab bir oy. Murojaat qiliş uçun manzilgohimiz: Farğona şahar, Farğona köçasi, 86-uy. Telefon: (+99891-665-72-05).

MA`MURIYAT

«Yangi Farg‘ona» – «Новая Фергана» gazetalari davlat muassasasi

MUASSIS:
Farg‘ona viloyati hokimligi

Bosh muharrir:
Shohidbek ASLONOV

Manzil:
Farg‘ona shahri, Yuksalish ko‘chasi, 78-«V/2» uy.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi Farg‘ona viloyat hududiy boshqarmasi tomonidan 2022-yil 29-avgustda 036860-raqam bilan ro‘yxatga olingan.

Gazeta «Poligraf-Press» MChJ bosmaxonasida chop etildi.
***Bosmaxona manzili**: Marg‘ilon shahri, Turkiston ko‘chasi, 236-«b» uy.*

Gazeta haftaning chorshanba va shanba kunlari chiqadi.

Gazetani yetkazib berish uchun obunani rasmiylashtirgan tashkilot javobgar.

Gazeta tahririyat kompyuter markazida sahifalandi.

Gazetaning poligrafik jihatdan sifatli chop etilishiga bosmaxona mas'ul.

Adadi: 6 963 nusxa.
Ofset usulida bosildi.
Qog‘oz bichimi A-2.
Bahosi kelishilgan narxda.
Nashr indeksi: 7603
Buyurtma: 512

Navbatchi muharrir:
Adhamjon RAHMONOV.
Dizayner:
Alisher ROZIQOV.